

Date: 7th March-2026

YOSH AYOLLARDA SUT BEZI O'SMALARNI TASHXISLASHDA UTT AHAMIYATI

Nishanova Yulduz Khatamovna
Suyarov Mehrojbek Nodirjonovich

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Uzbekistan, Tashkent

Annotatsiya. Yosh ayollarda (35 yoshgacha) sut bezi to'qimasi zich bo'lganligi sababli UTT asosiy skrining usuli sifatida qo'llanadi.[1] UTT yordamida o'smalarining o'lchami, shakli, konturi va ichki tuzilishini aniqlanadi.. Xavfsiz o'smalarni diagnostikasida kuzatish yordamida o'lcham o'zgarishini baholashga yordam beradi. Nurlanish yo'qligi sababli dinamikada, homilador va emizikli ayollarda qo'llash mumkun.[2]

Kalit so'zlar: Xavfsiz o'smalar, fibroadenoma UTT, sut bezining zich to'qimasi

Maqsadi: Yosh ayollarda sut bezi o'smalarini qiyosiy tashxislash uchun UTT ahamiyati.

Material va metodlar: Tadqiqot Toshkent davlat tibbiyot universiteti ko'p tarmoqli klinikasining onkologiya bo'limida olib borildi. Tekshiruvga 20-35 yosh orasidagi 83 nafar ayol (o'rtacha yosh 28 ± 2) jalb qilindi. Barcha bemorlarda sut bezlari palpatsiyasi hamda UTT o'tkazildi. UTT yordamida o'smaning o'lchami, shakli va konturi o'rganildi. Operatsiya amaliyoti o'tkazilgan bemorlarning olingan o'sma to'qimalari gistologiya tekshiruviga yuborilgan

Natijalar: Tekshirilgan 83 nafar ayollarning 35 nafarida (42.4 %) fibroadenoma , 18 nafarida (21.6%) kista va 5 nafarida (6%) xavfli o'sma aniqlandi va 25 nafari (30.12%) sog'lom ekanligi aniqlandi. UTT tekshiruvida tekshirilganda o'smaning ichki tuzilishi gomogen bo'lgan 32 nafar (38.5%), o'simtada qon oqimi mavjud bo'lmagan bemorlar 18 nafar (21,6%), o'smaning chagaralari silliq va shakli oval tuzilishi silliq va oval bo'lgan bemorlar 29 nafar (34,9%) va o'smaning tuzilishi nogomogen, gipoexogen va konturlari notog'ri bolgan bemorlar soni 4 nafar (4.8%).

Xulosa: Yosh ayollarda Ultratovush tekshiruvi (UTT) sut bezinin xavfsiz o'smalarini aniqlash va ularni xavfli o'smalardan farqlashda samarador usul hisoblanadi. UTT yordamida o'smaning shakli, konturi, ichki tuzilishi va qon oqimi baholanadi. Yosh ayollarda sut bezi zich to'qimadan iborat ekanligi sababli sezgirlik-93.5%, o'ziga xoslik-90.1% va diagnostik aniqlik-91%ni tashkil etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmedov R.A., Karimov M.A. Radiologiya va tibbiy tasviri diagnostika. Toshkent: Yangi asr avlodi; 2021.
2. American College of Radiology. ACR Practice Parameter for the Performance of a Breast Ultrasound Examination. Reston ; 2022.
3. Nishonov Sh.N., Xudoyberdiyev G.K. Onkologiya. Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti; 2019.



Date: 7th March-2026

4. World Health Organization. Breast cancer: fact sheet. Geneva: WHO; 2023.



International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings

